

“O‘zbekgeofizika” AJ Kuzatuv kengashi a’zolari haqida ma’lumot

	Muxutdinov Nodir Ubaydullayevich — Kuzatuv kengashi raisi. Geologiya-mineralogiya fanlari nomzodi. Neft-gaz sohasida 25 yildan ortiq amaliy va boshqaruv tajribasiga ega malakali rahbar va mutaxassis. U professional faoliyatini “Neft va gaz konlari geologiyasi hamda qidiruvi instituti”da muhandis va ilmiy xodim sifatida boshlagan va keyinchalik «O‘zbekneftgaz» AJ, Energetika vazirligi hamda Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligida rahbarlik lavozimlarida ishlagan. Geologiya-qidiruv ishlari, uglevodorodlarni qazib olish hamda ishlab chiqarish faoliyatini muvofiqlashtirish sohasida keng amaliy tajribaga ega.
	Daminov Avazbek Xodjiakbarovich — geologiya va investitsiyalar jalb qilish sohasida ko‘p yillik tajribaga ega mutaxassis. U Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligida mas’ul lavozimlarda ishlagan, jumladan zamonaviy geologiya-qidiruv texnologiyalarini joriy etish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va investitsiya loyihalarini amalga oshirish yo‘nalishlariga rahbarlik qilgan.
	Gary Hays — Kuzatuv kengashining mustaqil a’zosi. Fizika fanlari doktori, kimyo fanlari bakalavri. HR sohasida xalqaro ekspert va strategik konsalting (strategiya, ESG, HSE, yetakchilik) bo‘yicha yetakchi mutaxassis, 40 yildan ortiq tajribaga ega. Shell, Samruk-Kazyna, Sibur, ERG va ESA kabi yirik kompaniya va tashkilotlarda texnik, boshqaruv va konsultativ lavozimlarda ishlagan. Hozirda u ikki konsalting kompaniyasining asoschisi va yetakchi konsultanti hisoblanadi (ulardan biri Niderlandiyada, ikkinchisi Qozog‘istonda joylashgan), kompaniyalar turli mamlakatlardagi mijozlar bilan hamkorlik qiladi.
	Xusanov Nodirbek Jummaevich — iqtisod fanlari nomzodi, yuqori malakali rahbar bo‘lib, moliya, davlat boshqaruvi va moliya bozorlarida ko‘p yillik tajribaga ega. Turli davrlarda qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish, davlat aktivlarini boshqarish, valyuta aktivlari va moliyaviy instrumentlarni yuritish bo‘yicha mas’uli sifatida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat aktivlarini boshqarish agentligida rahbarlik lavozimlarda ishlagan. Shuningdek, xalqaro iqtisodiy hamkorlik tajribasiga ega.



Nazarov Shukurjon Nabijonovich — Kuzatuv kengashining mustaqil a'zosi, *ishlab chiqarish sohasida ko'p yillik xalqaro tajribaga ega mutaxassis*. Turli yillarda u yirik xalqaro kompaniyalarda boshqaruv va ekspert lavozimlarda ishlagan, jumladan Bosch und Siemens Hausgeräte AG (Germaniya), Arçelik Global A.Ş. va Huhtamaki Packaging A.Ş., moliyaviy tahlil, ishlab chiqarish jarayonlarini rivojlantirish va Markaziy Osiyo, Kavkaz, Shimoliy Afrika hamda Yaqin Sharq mamlakatlarida mintaqaviy boshqaruv bo'yicha mas'ul bo'lgan. “Uzeltexsanoat” Assotsiatsiyasi Raisining maslahatchisi sifatida faoliyat yuritgan. Shuningdek, u O'zbekistonda maslahat va tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadi, qurilish, ishlab chiqarish va to'qimachilik kompaniyalarining asoschisi va rahbari hisoblanadi.



Mirxadiyev Shuxrat Karimovich — geologiya va davlat boshqaruvi sohasida ko'p yillik tajribaga ega mutaxassis. U professional faoliyatini dala partiyalari geologi va davlat korxonalarining yetakchi mutaxassisi sifatida boshlagan, so'ngra O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi tizimi, Vazirlar Mahkamasi hamda Prezident Administratsiyasida rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritgan. Geologik ma'lumotlarni boshqarish, xavfli geologik jarayonlarni monitoring qilish, mineral-xomashyo bazasini rivojlantirish hamda soha bo'yicha qarorlarni analitik qo'llab-quvvatlash bo'yicha katta tajribaga ega.



Nabiyeov Tulkin Nabiyeovich — iqtisodiy va monopoliyadan chiqarish qonunchilik, raqobatni rivojlantirish hamda davlat aktivlarini boshqarish sohasida ko'p yillik tajribaga ega mutaxassis. Mehnat faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimida boshlagan bo'lib, iqtisodiy qonunchilik yo'nalishida maslahatchidan bo'lim boshlig'igacha bo'lgan lavozimlarda ishlagan. Keyingi yillarda xususiylashtirish, raqobatni rivojlantirish va monopoliyadan chiqarish organlarida, shuningdek, Davlat aktivlarini boshqarish agentligida mas'ul va rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritgan. Metodologiya, iqtisodiy tahlil, strategik rejalashtirish va normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish sohalarida katta amaliy tajribaga ega.



Mamatov Bexzod Abdug'afurovich — iqtisodiyot, moliya, buxgalteriya hisobi hamda davlat boshqaruvi sohasida katta tajribaga ega mutaxassis. Mehnat faoliyatini akademik muhitda boshlagan, keyinchalik iqtisodchi sifatida ishlagan hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligida mas'ul lavozimlarda faoliyat yuritib, buxgalteriya hisobi va audit metodologiyasi, moliyaviy hamda tarif tartibga solish, sanoatning tayanch tarmoqlari, yoqilg'i-energetika majmuasi va geologiya sohalariga oid masalalarni muvofiqlashtirgan. Keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligida, shuningdek, Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligida tegishli boshqarma va bo'linmalarga rahbarlik qilib, strategik rivojlanish hamda investitsiyalar yo'nalishlari uchun mas'ul bo'lgan.



Axmedov Sharofiddin Shodimurotovich — davlat aktivlarini boshqarish hamda korporativ boshqaruv sohasida katta tajribaga ega mutaxassis. Qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish organlarida, raqobatni rivojlantirish va xususiylashtirishga mas'ul davlat tuzilmalarida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi davlat aktivlarini boshqarish tizimida ko'p yillik amaliy tajribaga ega. Kasbiy faoliyati davomida davlat ishtirokidagi korxonalarda korporativ boshqaruv mexanizmlarini shakllantirish va takomillashtirish, boshqaruv hamda nazorat organlari faoliyatini tashkil etish jarayonlarida faol ishtirok etgan. Mulkdor huquqlarini himoya qilish, davlat aktivlarini boshqarish samaradorligini oshirish hamda korporativ boshqaruvning ilg'or amaliyotlarini joriy etish yo'nalishlarida chuqur bilim va amaliy ko'nikmalarga ega.